

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI  
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH  
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI  
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

# YAKUNIY HISOBOT



**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**  
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

**60811100 – Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi**  
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI  
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**60811100 – Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash  
texnologiyasi**

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN  
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

*(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)*

## EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



**Rais: AYASOV XUSHBEK G'AYBULLAYEVICH**

**Toshkent davlat agrar universiteti**

**falsafa doktori (PhD), dotsent**



**A'zo: BARATOVA MOXIDIL RAXIMOVNA**

**Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti**

**fan doktori (DSc), professor**

## 1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

|                                                              |                                                                                                                                       |
|--------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ariza raqami                                                 | MAO260062                                                                                                                             |
| Xulosa raqami                                                | 1287                                                                                                                                  |
| Xulosa sanasi                                                | 01.07.2026                                                                                                                            |
| Ta'lim tashkilotining to'liq nomi                            | "NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI"<br>DAVLAT MUASSASASI                                                                           |
| Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari | Namangan shahri, Davlatobod tumani, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Litsenziya: № 2734834, 20.02.2025. Guvohnoma: MAS № 0000392, 23.07.2026. |
| Baholangan ta'lim dasturi nomi                               | Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi                                                                     |
| Yo'nalish / mutaxassislik kodi                               | 60811100                                                                                                                              |
| Akkreditatsiya usuli                                         | masofaviy / joyiga chiqib                                                                                                             |

## 2. HUQUQIY ASOSLAR

### Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

### Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

### 3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

|                                                                                                                      |                                                                              |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|
| <b>1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi:</b><br><i>License/Certificate of Educational Institution:</i>    | № 2734834, 20.02.2025                                                        |
| <b>2. Ta'lim tashkilotining turi:</b><br><i>Type of Educational Institution:</i>                                     | Davlat oliy ta'lim tashkiloti                                                |
| <b>3. Ta'lim dasturi kodi va nomi:</b><br><i>Code and Name of Study Programme:</i>                                   | 60811100 – Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi |
| <b>4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi:</b><br><i>Name of Study Programme in English:</i>                 | 60811100 – Technology for Cultivating and Processing Medicinal Plants        |
| <b>5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi:</b><br><i>Name of Study Programme in Russian:</i>                    | 60811100 – Технология выращивания и переработки лекарственных растений       |
| <b>6. Hamkorlikda amalga oshirilishi:</b><br><i>Offered in Cooperation with:</i>                                     | —                                                                            |
| <b>7. Ta'lim tili:</b><br><i>Medium of Instruction:</i>                                                              | o'zbek                                                                       |
| <b>8. Ta'lim shakli:</b><br><i>Mode of Study:</i>                                                                    | kunduzgi                                                                     |
| <b>9. Ta'lim dasturi hajmi:</b><br><i>Study Programme Credits:</i>                                                   | 240 kredit                                                                   |
| <b>10. Ta'lim dasturi davomiyligi:</b><br><i>Duration of Study Programme:</i>                                        | 4 yil                                                                        |
| <b>11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi:</b><br><i>Level in National Qualifications Framework:</i>                 | 6-daraja                                                                     |
| <b>12. Kvalifikatsiya(lar) nomi:</b><br><i>Qualification Title:</i>                                                  | Fito texnolog-agronom, fito texnolog-dorishunos, fito texnolog-biolog        |
| <b>13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar:</b><br><i>Additional Qualifications Awarded:</i>                    | —                                                                            |
| <b>14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi:</b><br><i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>       | Davlat namunasidagi diplom                                                   |
| <b>15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr):</b><br><i>Maximum Number of Students (full period):</i> | 300 nafar                                                                    |
| <b>16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili:</b><br><i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>              | Namangan shahri, Davlatobod tumani, Sportchilar ko'chasi, 1-uy               |

#### 4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

| №         | Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari                                                                                                                                                                                                                         | Muvofiqligi    |
|-----------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|
| <b>1.</b> | <b>Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash</b>                                                                                                                                                                                                              | <b>Muvofiq</b> |
| 1.1.      | <i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>                                                                                                                                     | Muvofiq        |
| 1.2.      | <i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>                                                                                                                               | Muvofiq        |
| 1.3.      | <i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>                                                                                                      | Muvofiq        |
| 1.4.      | <i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>                                                                                                              | Muvofiq        |
| <b>2.</b> | <b>Ta'lim dasturlari</b>                                                                                                                                                                                                                                      | <b>Muvofiq</b> |
| 2.1.      | <i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i> | Muvofiq        |
| 2.2.      | <i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>                                                                                                                                       | Muvofiq        |
| 2.3.      | <i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>                                                                                                                                                                    | Muvofiq        |
| <b>3.</b> | <b>O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash</b>                                                                                                                                                                                          | <b>Muvofiq</b> |
| 3.1.      | <i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>                                                                                                                                                                 | Muvofiq        |
| 3.2.      | <i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>                                                                                                                                                        | Muvofiq        |
| 3.3.      | <i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>                                                                                                                                                                        | Muvofiq        |
| 3.5.      | <i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>                                                                                                                   | Muvofiq        |
| 3.6.      | <i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>                                                                                                                                                            | Muvofiq        |
| 3.7.      | <i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>                                                                                                           | Muvofiq        |

| No        | Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari                                                                                                                                                                                                                                                             | Muvofiqligi    |
|-----------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|
| <b>4.</b> | <b>Talabalar faoliyati</b>                                                                                                                                                                                                                                                                        | <b>Muvofiq</b> |
| 4.1.      | <i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>                                                                                                                                                                         | Muvofiq        |
| 4.2.      | <i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>                                                                                                                                                                                                   | Muvofiq        |
| 4.3.      | <i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>                                                                                                                                  | Muvofiq        |
| 4.4.      | <i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>                                                                                                                                                                                                      | Muvofiq        |
| <b>5.</b> | <b>Inson resurslari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                           | <b>Muvofiq</b> |
| 5.1.      | <i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>                                  | Muvofiq        |
| 5.3.      | <i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>                                                                                              | Muvofiq        |
| 5.4.      | <i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>                                                                                                                                                      | Muvofiq        |
| <b>6.</b> | <b>Moddiy-texnik ta'minot</b>                                                                                                                                                                                                                                                                     | <b>Muvofiq</b> |
| 6.1.      | <i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i> | Muvofiq        |
| 6.2.      | <i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>                                                                                                                                                        | Muvofiq        |
| 6.3.      | <i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>                                                    | Muvofiq        |
| 6.4.      | <i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>                                                                                                  | Muvofiq        |
| 6.5.      | <i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>                                                                                                                 | Muvofiq        |

| No   | Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari                                                                                                                        | Muvofiqligi |
|------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
| 6.6. | <i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>                                | Muvofiq     |
| 6.7. | <i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i> | Muvofiq     |

## 5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

### 1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

60811100 – "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi" ta'lim dasturi bo'yicha tashkiliy-boshqaruv tizimi hamda ta'lim sifatini ichki ta'minlash mexanizmlariga oid hujjatlar va amaliyot holati tahlil qilindi. O'rganish natijasida iste'molchilar, ish beruvchilar va mehnat bozori ehtiyojlarini aniqlash jarayonlari zamonaviy raqamli vositalar asosida tashkil etilgani, xususan, kafedra tomonidan Google so'rovnomalari orqali muntazam monitoring olib borilishi hamda olingan natijalar ta'lim dasturini takomillashtirishda foydalanilayotgani aniqlandi. Shuningdek, ta'lim dasturini boshqarish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma shakllantirilgani, istiqbolli rivojlanish rejasi ishlab chiqilgani hamda ichki sifat monitoringi tizimli ravishda amalga oshirilayotgani qayd etildi. Yangi tashkil etilgan ta'lim yo'nalishi uchun mehnat bozori ehtiyojlarini doimiy ravishda o'rganish, tahlil qilish va ularning natijalarini ta'lim mazmuniga integratsiya etish ta'lim dasturining dolzarbligi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Tahlil natijalari mazkur bob bo'yicha belgilangan mezon va talablarning bajarilganini tasdiqladi.

### 2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Ta'lim dasturining mazmuni, o'quv reja, malaka talablari, fan dasturlari hamda uni rejalashtirish, joriy etish va baholash mexanizmlariga oid hujjatlar atroflicha tahlil qilindi. O'rganish natijasida ta'lim dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining amaldagi me'yoriy-uslubiy hujjatlari hamda kredit-modul tizimi tamoyillari asosida tashkil etilgani aniqlandi. Dastur sifati va uning ijrosini nazorat qilish rektorning tegishli buyruqlari hamda maxsus ishchi guruhlar faoliyati orqali tizimli ravishda amalga oshirilayotgani qayd etildi. Shuningdek, ta'lim dasturi bitiruvchilariga "Fito texnolog-agronom", "Fito

texnolog-dorishunos" va "Fito texnolog-biolog" kvalifikatsiyalarini egallash imkonini beruvchi nazariy va amaliy tayyorgarlik mazmuni shakllantirilgani kuzatildi. Dastur tarkibida agrotexnologiya, farmatsevtika va biologiya yo'nalishlariga oid bilim hamda kompetensiyalarning o'zaro integratsiyalashgani, bu esa bitiruvchilarning ko'p tarmoqli kasbiy faoliyatga tayyorlanishini ta'minlovchi muhim ustunliklardan biri ekani baholandi. O'tkazilgan tahlillar mazkur bob bo'yicha belgilangan mezon va talablarning to'liq bajarilganini tasdiqladi.

### **3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi**

O'quv jarayonini tashkil etish, o'quv natijalarini baholash, akademik faoliyatni qayd etish hamda o'quv reja va sillabuslarga oid hujjatlar tahlil qilindi. O'rganish natijasida talabalar bilimini baholash va akademik ko'rsatkichlarni qayd etish jarayonlari to'liq HEMIS axborot tizimi orqali elektron shaklda amalga oshirilayotgani, tizimdan tashqari yuritilgan baholash natijalari rasmiy hisobga olinmasligi hamda har bir professor-o'qituvchi o'zining shaxsiy profili orqali baholash va ma'lumotlarni kiritishi ta'minlangani aniqlandi. Shuningdek, o'quv reja va sillabuslar amaldagi me'yoriy talablar asosida ishlab chiqilgani, baholash mezonlarining ochiqqligi hamda akademik halollik tamoyillarini ta'minlashga qaratilgan ichki mexanizmlar samarali joriy etilgani qayd etildi. Baholash jarayonlarining to'liq elektron platforma orqali amalga oshirilishi inson omilini kamaytirish, shaffoflikni ta'minlash hamda o'quv natijalarining xolisligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizmlardan biri sifatida baholandi. Tahlil natijalari mazkur bob bo'yicha belgilangan mezon va talablarning bajarilganini tasdiqladi.

### **4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi**

Talabalarni qabul qilish jarayoni, qabul kvotalari, kirish imtihonlari fanlar majmuasi, baholash mezonlari, talabalar harakati hamda ularni qo'llab-quvvatlash tizimiga oid hujjatlar va amaliyot holati tahlil qilindi. O'rganish natijasida qabul jarayonlari Vazirlar Mahkamasining amaldagi me'yoriy hujjatlari asosida tashkil etilgani, qabul kvotalari, kirish imtihonlari fanlari va baholash mezonlari aniq belgilanganligi hamda barcha jarayonlar raqamli platformalar orqali shaffof amalga oshirilayotgani aniqlandi. Shuningdek, talabalar harakatini tartibga soluvchi mexanizmlar, akademik va ma'muriy xizmatlar, murojaatlarni ko'rib chiqish hamda ta'lim oluvchilarni qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan tartibda faoliyat yuritayotgani qayd etildi. Mazkur yangi ta'lim yo'nalishi bo'yicha abituriyentlarga kasbning mazmuni, istiqbollari va mehnat bozoridagi imkoniyatlari haqida to'liq hamda ishonchli

axborot berilishi sifatli kontingentni shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. O'rganish yakunlari ushbu bob bo'yicha belgilangan mezonlarning bajarilganini va talabalar faoliyatini tashkil etish tizimi amaldagi talablarga muvofiqligini tasdiqladi.

### **5-bob. Inson resurslari yo'nalishi**

Professor-o'qituvchilar tarkibi, ularning ilmiy salohiyati, malaka darajasi hamda ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur kadrlar ta'minotiga oid ma'lumotlar tahlil qilindi. O'rganish natijasida kafedrada 6 nafar professor, 7 nafar dotsent, 2 nafar katta o'qituvchi hamda PhD ilmiy darajasiga ega assistentlardan iborat malakali pedagogik jamoa shakllantirilgani aniqlandi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida ularni har yili malaka oshirish kurslari va qisqa muddatli stajirovkalarga muntazam jalb etish yo'lga qo'yilgani, bu esa zamonaviy ilmiy va pedagogik yondashuvlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga xizmat qilayotgani qayd etildi. Fanlararo xususiyatga ega mazkur ta'lim yo'nalishida professor va dotsentlar ulushining yuqori bo'lishi, talabalarga ilmiy-uslubiy rahbarlikni samarali tashkil etish hamda ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Tahlil natijalari mazkur bob bo'yicha belgilangan mezon va talablarning bajarilganini tasdiqladi.

### **6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi**

Moddiy-texnik ta'minot, laboratoriyalar, o'quv jihozlari, axborot-resurs bazasi hamda ta'lim jarayonini tashkil etishga xizmat qiluvchi infratuzilmaga oid hujjatlar va mavjud sharoitlar tahlil qilindi. O'rganish natijasida kafedralar tomonidan asbob-uskunalar va texnik vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi qabul qilingan talabalar soni hamda fan dasturlarining ehtiyojidan kelib chiqib muntazam tahlil qilinayotgani aniqlandi. Laboratoriya mashg'ulotlarining kichik guruhlarda tashkil etilishi mavjud infratuzilma imkoniyatlari bilan uyg'un holda yo'lga qo'yilgani, bu esa amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilayotgani qayd etildi. Shuningdek, talabalar uchun zarur o'quv adabiyotlari, elektron axborot resurslari va raqamli ta'lim muhiti bilan ta'minlash ishlari belgilangan talablar asosida tashkil etilgani kuzatildi. Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi yo'nalishining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, tajriba maydonlari hamda qayta ishlash laboratoriyalaridan o'quv jarayonida samarali foydalanish talabalarining amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning

muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Tahlil yakunlari moddiy-texnik ta'minot bo'yicha belgilangan mezon va talablarning bajarilganini tasdiqladi.

## **6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR**

### **Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):**

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

### **Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:**

- ✓ Monitoring va tahlil natijalarini aks ettiruvchi ichki hisobotlarni standartlashtirish hamda muntazamligini kuchaytirish zarurati mavjud.
- ✓ Xalqaro hamkorlik va akademik almashinuv elementlarini kengaytirish imkoniyatlari to'liq ishga solinmagan.
- ✓ Ayrim fanlar bo'yicha eng so'nggi yillarda nashr etilgan o'quv adabiyotlari ulushini oshirish talab etiladi.

## **7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR**

- ✓ Ichki monitoring hisobotlarini standartlashtirish va ular asosida qabul qilingan boshqaruv qarorlari ijrosini baholab borish.
- ✓ Xalqaro hamkorlik, qo'shma dasturlar va akademik almashinuv imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish.
- ✓ O'quv adabiyotlari va elektron resurslar fondini muntazam yangilab borish.
- ✓ Amaliyotchi mutaxassislarni o'quv jarayoniga jalb etishni davom ettirish.

## **8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA**

Baholash natijalariga ko'ra, Namangan davlat texnika universitetida 60811100 – “Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi” bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, ta'lim jarayonini tashkil etish mexanizmlari, boshqaruv tizimi, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik va axborot-resurs ta'minoti kompleks ravishda tahlil qilindi. O'rganish natijalariga asosan ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi samarali yo'lga qo'yilgani, iste'molchilar hamda mehnat bozori ehtiyojlarini muntazam o'rganish va ularning natijalarini ta'lim dasturini takomillashtirishda qo'llash mexanizmlari shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining mazmuni davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi va mehnat bozori talablariga muvofiq ishlab chiqilgani, o'quv jarayonida HEMIS axborot tizimi orqali shaffof baholash hamda akademik halollik tamoyillari ta'minlangani o'z tasdig'ini topdi. Shuningdek,

talabalarni qabul qilish va qo'llab-quvvatlash tizimlari belgilangan tartibda tashkil etilgani, professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy va kasbiy salohiyati ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli ekani hamda tajriba maydonlari, qayta ishlash laboratoriyalari va boshqa moddiy-texnik resurslarning o'quv jarayoni bilan uzviy bog'langani qayd etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, hisobotning barcha 6 ta bobi va 27 ta mezon bo'yicha belgilangan talablar bajarilgani hamda ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligi tasdiqlandi. O'rganish davomida aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturining amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, uni yanada takomillashtirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi tavsiyaviy xususiyatga ega ekani e'tirof etildi. Umuman olganda, mavjud dalillar va baholash natijalari bakalavriat ta'lim dasturining belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga to'liq mos kelishini ko'rsatdi.

#### 9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

|                                                  |                                |
|--------------------------------------------------|--------------------------------|
| <b>Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:</b> | 20.07.2026                     |
| <b>Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:</b>    | 5-son                          |
| <b>Yakuniy qaror:</b>                            | <b>AKKREDITATSIYADAN O'TDI</b> |



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz  
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

